

“Kimyogar” bolalar oromgohida yozgi mavsumga tayyorgarlik ishlari o‘rganildi

// 20 May 2026 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/20260520>

2026-yilgi yozgi mavsumga tayyorgarlik ishlarini o‘rganish maqsadida “Kimyogar” bolalar oromgohida amalga oshirilayotgan ishlar ko‘zdan kechirildi.



O‘rganish jarayonida oromgohning yangi mavsumga tayyorgarlik holati, hududda olib borilayotgan obodonlashtirish ishlari, yotoqxonalar, oshxona, madaniy tadbirlar maydonlari hamda bolalar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar atroflicha o‘rganildi.





Shuningdek, oromgoh hududida o'tkazilishi rejalashtirilgan "Kimyo sanoati yosh mutaxassislari forumi"ni yuqori tashkiliy saviyada tashkil etish masalalari muhokama qilindi. Forum ishtirokchilari uchun xavfsiz va zamonaviy muhit yaratish, yashash va ovqatlanish sharoitlarini yaxshilash, madaniy va ma'rifiy tadbirlarni samarali tashkil etish bo'yicha tayyorgarlik ishlariga alohida e'tibor qaratildi.





O'rganish yakunida oromgoh infratuzilmasini yanada takomillashtirish, obodonlashtirish ishlarini jadallashtirish hamda forumni yuqori saviyada o'tkazish yuzasidan tegishli vazifalar belgilandi.

